



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA Olish USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	



AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOYIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Radjabov Bunyod Abduxalilovich

“Davlat siyosati va boshqaruvi” maktabi tinglovchisi

Annotatsiya. Aqlli shahar tizimida ijtimoiy soha boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida institutsional, iqtisodiy va axborot konturlarini o‘zaro integratsiyalovchi uch qatlamli model ishlab chiqilgan. Xalqaro baholash mezonlari, milliy normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik manbalar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari raqamli infratuzilmani rivojlantirish, idoralararo ma'lumotlar almashinuvini takomillashtirish, proaktiv xizmatlarni kengaytirish, fuqarolar ishtirokini kuchaytirish va resurslardan oqilona foydalanish ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishini ko'rsatgan. Taklif etilgan mexanizm boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish, xizmatlarning manzilliligini kuchaytirish, monitoring tizimini takomillashtirish hamda natijalarni o'lchanadigan ko'rsatkichlar asosida baholash uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shuningdek, model ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, hududiy ehtiyojlarni aniqroq hisobga olish va boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga asoslangan holda shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur yondashuv tizimning barqarorligi, shaffofligi va foydalanuvchilarga yo'naltirilganligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: aqlli shahar, ijtimoiy soha, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, raqamli boshqaruv, ijtimoiy xizmatlar, institutsional salohiyat, monitoring, proaktiv xizmatlar.

Аннотация. Организационно-экономические механизмы повышения эффективности управления социальной сферой в системе умного города проанализированы с научной точки зрения. В рамках исследования разработана трехуровневая модель, интегрирующая институциональный, экономический и информационный контуры. Проведен сравнительный анализ международных оценочных подходов, национальных нормативно-правовых документов и официальных статистических источников. Результаты исследования показали, что развитие цифровой инфраструктуры, совершенствование межведомственного обмена данными, расширение проактивных услуг, повышение уровня участия граждан и рациональное использование ресурсов способствуют повышению эффективности социальных услуг. Предложенный механизм формирует научно-практическую основу для координации управленческих процессов, повышения адресности услуг, совершенствования системы мониторинга и оценки результатов на основе измеримых показателей. Разработанная модель также расширяет возможности повышения качества социальных услуг, более точного учета территориальных потребностей и принятия управленческих решений на основе данных. Данный подход способствует повышению устойчивости, прозрачности и ориентированности системы на потребности пользователей.

Ключевые слова: умный город, социальная сфера, организационно-экономический механизм, цифровое управление, социальные услуги, институциональный потенциал, мониторинг, проактивные услуги.

Abstract. Organizational and economic mechanisms for improving the efficiency of social-sector management within a smart city system are examined from a scientific perspective. The study develops a three-layer model integrating institutional, economic, and information dimensions. International assessment frameworks, national regulatory documents, and official statistical sources are comparatively analyzed. The findings demonstrate that the development of digital infrastructure, improved interagency data exchange, expansion of proactive services, enhanced citizen participation, and efficient resource utilization contribute to greater social service efficiency. The proposed mechanism provides a scientific and practical framework for coordinating management processes, improving the targeting of services, strengthening monitoring systems, and evaluating outcomes based on measurable indicators. The developed model also expands opportunities to improve the quality of social services, more accurately account for territorial needs, and support data-driven managerial decision-making. This approach contributes to strengthening the sustainability, transparency, and user orientation of the system.

Keywords: smart city, social sector, organizational-economic mechanism, digital governance, social services, institutional capacity, monitoring, proactive services.



KIRISH

Zamonaviy urbanistik nazariyada aqlli shahar tushunchasi texnologik infratuzilmalar yig'indisi sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional o'lchovlarni birlashtiruvchi ko'p qirrali konstruktsiya sifatida talqin etiladi. Yevropaning o'rta yiriklikdagi 70 ta shahri bo'yicha 74 ta indikator asosida o'tkazilgan klassik tadqiqot aqlli shaharni oltita xarakteristika – iqtisodiyot, aholi, boshqaruv, harakatchanlik, atrof-muhit va yashash sifati kesimida tavsifladi [1]. Mazkur tuzilmaning nazariy qimmati shundaki, u ijtimoiy sohani mustaqil o'lchov sifatida ajratib ko'rsatadi va ayni paytda uni boshqaruv hamda iqtisodiy o'lchovlar bilan uzviy bog'laydi. Ijtimoiy soha aqlli shahar tizimida texnologik yechimlarning yakuniy qabul qiluvchisi emas, balki shahar taraqqiyoti samarasi eng aniq namoyon bo'ladigan maydon sifatida namoyon bo'ladi.

Aqlli shahar boshqaruvining nazariy talqinlari ham texnologiyaga emas, institutsional o'zgarishga urg'u beradi. Ellik bir ilmiy nashrni qamrab olgan sharh aqlli shahar boshqaruvini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida inson hamkorligining yangi shakllarini yaratish jarayoni sifatida ta'rifladi hamda uni ijtimoiy-texnik o'zgarishlar nazariyasi doirasida o'rganishni asoslab berdi [2]. Keyingi yillarda bajarilgan tizimli sharhlar raqamli infratuzilma, ma'lumotlar boshqaruvi, fuqarolarning ishtiroki va institutsional salohiyatni aqlli boshqaruvning asosiy imkoniyat yaratuvchi omillari sifatida umumlashtirdi [3]. Ushbu qarashlar birgalikda quyidagi nazariy xulosaga olib keladi: raqamli vositalar boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, bunda samaradorlik darajasi ularni tashkiliy tuzilmalar va iqtisodiy vositalar bilan muvofiqlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm deganda ijtimoiy soha resurslarini xizmat natijalariga aylantiruvchi tashkiliy tuzilmalar, boshqaruv tartib-taomillari, huquqiy normalar hamda iqtisodiy vositalarning o'zaro bog'langan majmui tushuniladi. Uning tashkiliy qismi vakolatlarining taqsimlanishi, idoralararo muvofiqlashuv va xizmat ko'rsatish nuqtalarining hududiy joylashuvini qamrab oladi. Iqtisodiy qismi moliyalashtirish manbalari, xarajatlarning manzilliligi, birlik xizmat qiymati va resurslardan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Aqlli shahar sharoitida ushbu ikki qism uchinchi – axborot qismi bilan to'ldiriladi, chunki ma'lumotlarning yagona aylanishi tashkiliy qarorlar bilan iqtisodiy taqsimotni real vaqt rejimida bog'lash imkonini yaratadi.

O'zbekistonda aqlli shahar texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi "aqlli ta'lim", "aqlli tibbiyot", "aqlli hokimiyat" va "aqlli mahalla" kabi yo'nalishlarni belgilab, ijtimoiy sohani raqamli o'zgarishlarning ustuvor obyekti sifatida e'tirof etdi [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son¹ Farmoni iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash hamda elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadini ilgari surdi [5]. Bunday izchil siyosiy-huquqiy asos ijtimoiy soha boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaxlit tizim sifatida modellashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Maqolaning maqsadi – aqlli shahar tizimida ijtimoiy soha boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini nazariy jihatdan tuzilmashtirish, uning tarkibiy konturlarini aniqlash hamda amaldagi institutsional asos bilan bog'langan holda takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarning birinchi yo'nalishi boshqaruv mexanizmlarining aqlli shahar loyihalari amalga oshirilishiga ta'sirini empirik tarzda o'rganadi. Amerika Qo'shma Shtatlarining 99 ta shahri ma'lumotlari asosida bajarilgan tadqiqot me'yoriy hujjatlar, strategik rejalar va sheriklik kelishuvlari ko'rinishidagi boshqaruv vositalari loyihalarning qabul qilinishida sezilarli o'rin egallashini ko'rsatdi hamda infratuzilma loyihalari uchun boshqaruvning qonuniyligi omili alohida ahamiyat kasb etishini aniqladi [7]. Aqlli boshqaruvning natijalari va tashqi samaralarini ajratib tahlil qilgan tadqiqot esa boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar xizmat sifatidan tashqari, shaharning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muhitiga ham ta'sir ko'rsatishini asosladi [8].

Ikkinchi yo'nalish ijtimoiy inklyuziya va fuqaro markazlilik masalalariga qaratilgan. Tizimli sharh asosida shakllantirilgan indikatorlar to'plami fuqaro markazli aqlli shaharni ishtirokchilik amaliyotlari va fuqarolarning javobgarligi kesimida o'lchash imkonini berdi [9]. Raqamli tengsizlik masalasiga bag'ishlangan sharh shahar boshqaruvida inklyuziyani institutsionallashtirishning amaliy shakllarini – maxsus tarkibiy bo'linmalar tashkil etish, davlat-xususiy sherikliklardan foydalanish, davlat xizmatchilarini maxsus tayyorlash va jamoatchilikni jalb

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



qilishni umumlashtirdi [10]. Yevropaning 27 ta shahri bo'yicha 11 ta integral ko'rsatkich asosida o'tkazilgan klaster tahlili raqamli rivojlanishning uch avlodini – kirish imkoniyati, raqamli ko'nikmalar va ijtimoiy-iqtisodiy naf olish qobiliyatini farqlab, shaharlarning tipik rivojlanish profillarini aniqladi [11]. Ushbu natijalar ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirishda aholining alohida qatlamlari uchun qo'shimcha tashkiliy ko'makni rivojlantirish zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Uchinchi yo'nalish baholash va standartlashtirish masalalarini qamrab oladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan taklif etilgan raqamli hukumat siyosati ramkasi raqamli yetuklikni oltita o'lchov – loyihalash bosqichidanoq raqamlilik, ma'lumotlarga tayangan davlat sektori, platforma sifatidagi hukumat, ochiqlikning birlamchiligi, foydalanuvchiga yo'naltirilganlik va proaktivlik bo'yicha o'lchashni nazarda tutadi [12]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024-yilgi sharhi elektron hukumatni rivojlantirish indeksi bilan bir qatorda mahalliy onlayn xizmatlar indeksini qo'lladi hamda raqamli hukumat rivojlanishidan manfaatdorlik darajasini oshirish natijasida tegishli aholi ulushi 2022-yildagi 45,0 foizdan 2024-yilda 22,4 foizgacha o'zgarganini qayd etdi [13]. Aqlli shaharlar uchun indikatorlarning xalqaro standarti sog'liqni saqlash, ta'lim hamda aholi va ijtimoiy sharoitlar bo'limlarini alohida ajratib, ijtimoiy sohani o'lchanadigan obyektga aylantirdi [14]. Standartlar oilasining boshqa hujjatlari aqlli shaharning operatsion modellarini shakllantirish bo'yicha uslubiy yo'riqnomalarni taqdim etadi [15]. Jahon banki tomonidan yuritiladigan GovTech yetukligi indeksi esa davlat sektorining raqamli o'zgarishini to'rtta yo'nalish va 48 ta ko'rsatkich orqali tavsiflaydi [16].

Mavjud adabiyotlarda aqlli boshqaruvning konseptual asoslari, inklyuziya talablari va o'lchov vositalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy soha boshqaruvining tashkiliy va iqtisodiy tarkibiy qismlarini yagona mexanizm sifatida birlashtiruvchi hamda milliy institutsional asos bilan bog'langan yaxlit nazariy modelni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Tadqiqot mazkur ilmiy yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy tipda qurildi va sifat tadqiqotiga tayandi. Birinchi bosqichda normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuniy tahlili amalga oshirildi: ijtimoiy xizmatlar sohasidagi vakolatlar, tartib-taomillar va axborot tizimlarini belgilovchi qoidalar ajratib olindi hamda ularning tashkiliy va iqtisodiy mazmuni bo'yicha guruhlandi. Ikkinchi bosqichda xalqaro baholash ramkalarining qiyosiy institutsional tahlili o'tkazildi; taqqoslash mezonlari sifatida ramkaning tuzilmaviy asosi, ijtimoiy sohaga oid o'lchovning mavjudligi va mahalliy darajada qo'llanilish imkoniyati qabul qilindi. Uchinchi bosqichda tuzilmaviy-funksional yondashuv asosida mexanizmning konturli modeli shakllantirildi. To'rtinchi bosqichda mantiqiy sintez usuli yordamida takomillashtirish yo'nalishlari asoslandi.

Manbalar bazasi uch qatlamdan tashkil topdi. Birinchi qatlamni O'zbekiston Respublikasining rasmiy huquqiy hujjatlari tashkil etdi: aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish to'g'risidagi qaror, aholiga sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish va uning nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha farmon, ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi qaror hamda ijtimoiy himoya huquqlarini ta'minlashga doir hukumat qarori. Ikkinchi qatlam rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi va xalqaro tashkilotlarning ochiq reyting ma'lumotlaridan iborat bo'ldi. Uchinchi qatlamni ochiq kirishdagi ilmiy nashrlar tashkil etdi.

Mexanizm tarkibiga kiritiladigan elementlar to'rtta mezon bo'yicha saralandi: elementning aniq huquqiy asosga ega bo'lishi; unga resurs manbasining birlashtirilganligi; natijasining o'lchanadigan ko'rinishda ifodalanishi; boshqa idoralar ma'lumotlari bilan bog'lanish qobiliyati. Ushbu mezonlar modelning tekshiriladigan va amaliyotga tatbiq etiladigan bo'lishini ta'minladi. Tadqiqot nazariy modelni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ekonometrik baholash keyingi tadqiqot bosqichlarida amalga oshirilishi nazarda tutiladi; natija sifatida nazariy model va unga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy takliflar taqdim etildi. Mazkur yondashuv modelni keyingi bosqichda miqdoriy sinovdan o'tkazish uchun aniq gipotezalar to'plamini shakllantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro baholash ramkalarining qiyosiy tahlili ijtimoiy sohaning har bir ramkada mustaqil o'lchov sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ramkalar o'zaro raqobatlashmaydi, balki boshqaruvning turli qatlamlarini – natija, jarayon va institutsional salohiyat qatlamlarini qamrab oladi. 1-jadvalda ushbu ramkalar va ularning ijtimoiy soha boshqaruviga tatbiq etilish nuqtalari umumlashtirildi.



1-jadval

Aqlli shahar va raqamli boshqaruvni baholashning xalqaro ramkalari
hamda ularning ijtimoiy soha boshqaruviga tatbiq etilishi²

Ramka (yil)	Tuzilmaviy asosi	Ijtimoiy sohaga oid o'lchovi	Manba
Aqlli shahar reytingi modeli (2007)	6 ta xarakteristika; 70 ta shahar; 74 ta indikator	"Yashash sifati" va "aholi" xarakteristikalarini orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy birdamlik	[1]
Ijtimoiy inkluziya indikatorlari (2021)	Tizimli sharh asosidagi indikatorlar to'plami	Fuqaro markazli boshqaruv va ishtirokchilik amaliyotlari	[9]
OECD raqamli hukumat siyosati ramkasi (2020)	Raqamli yetuklikning 6 ta o'lchovi	Foydalanuvchiga yo'naltirilganlik va proaktiv xizmat ko'rsatish	[12]
BMT elektron hukumat sharhi (2024)	EGDI komponentlari va mahalliy onlayn xizmatlar indeksi	Ijtimoiy xizmatlarning onlayn qamrovi va mahalliy darajadagi taqdimoti	[13]
ISO 37122:2019 indikatorlari	Mavzuiy bo'limlar bo'yicha shahar indikatorlari tizimi	Sog'liqni saqlash, ta'lim, aholi va ijtimoiy sharoitlar bo'limlari	[14]
Jahon banki GovTech yetukligi indeksi (2025)	4 ta yo'nalish; 48 ta ko'rsatkich; A–D guruhlar	Raqamli davlat xizmatlari va fuqarolarning raqamli ishtiroki	[16]


1-jadval ma'lumotlari mexanizmning uch qatlamli tuzilishini nazariy jihatdan tasdiqlaydi. Xalqaro standartlar natija ko'rsatkichlarini, siyosat ramkalari xizmat ko'rsatish jarayonini, yetuklik indeksi esa institutsional salohiyatni o'lchaydi. Ushbu uch qatlam ijtimoiy soha boshqaruvida mos ravishda iqtisodiy, tashkiliy va axborot konturlariga aylantiriladi.

Milliy institutsional asosning tahlili konturlarning har biri amaldagi huquqiy normalarda aniq ifodasini topganini ko'rsatdi. Ijtimoiy himoya sohasida yagona axborot tizimi orqali ehtiyojmandlikni aniqlash va nafaqalarni tayinlash tartibi belgilangan hamda manfaatdor vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan elektron hamkorlikni kengaytirish dasturi tasdiqlangan [17]. Mahalla darajasida ijtimoiy xodimlar guruhlarini tashkil etilib, ularning vazifalari sifatida xonadonlar ahvolini o'rganish, oilalarning ijtimoiy pasportlarini shakllantirish va keys-menejment usulini qo'llagan holda ish yuritish belgilangan [18]. Tuman va shaharlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yilib, ular ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga kompleks yondashuv asosida professional xizmat ko'rsatish vazifasini oldi [19]. Markazlarning mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, hududiy davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik tartibi hukumat qarori bilan tartibga solindi [20]. Ushbu normalar majmui aqlli shahar sharoitida ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasigacha yetkazuvchi tashkiliy zanjirni shakllantirdi.

Raqamli boshqaruvning umumiy darajasi mexanizmning axborot konturi uchun qulay sharoit yaratilganini ko'rsatadi. Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi bo'yicha O'zbekiston 2022-yilda 0,7265 ko'rsatkich bilan 69-o'rinni, 2024-yilda esa 0,7999 ko'rsatkich bilan 63-o'rinni egalladi va birinchi marta "juda yuqori" guruhga kirdi [22]. Erishilgan qiymat "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2025-yilga belgilangan 0,75 mo'ljalidan yuqori bo'ldi [5]. Ushbu dinamika mahalliy onlayn xizmatlarni kengaytirish va ijtimoiy xizmatlarning raqamli qamrovini chuqurlashtirish uchun ishonchli texnologik zamin mavjudligini tasdiqlaydi [13].

Tahlil natijalari asosida ijtimoiy soha boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi uch konturli model ko'rinishida umumlashtirildi. Modelning mantig'i quyidagicha: institutsional-tashkiliy kontur ehtiyojni aniqlaydi va xizmat ko'rsatish zanjirini shakllantiradi; iqtisodiy-moliyaviy kontur ushbu zanjirga resurslarni manzilli taqsimlaydi; raqamli-axborot kontur esa ikkala konturni yagona ma'lumot oqimi bilan bog'lab, natijani o'lchanadigan holga keltiradi. Konturlarning ketma-ket va teskari aloqali ishlashi mexanizmning yaxlitligini ta'minlaydi. Model 1-rasmda keltirildi.

2 Manba: muallif tomonidan [1], [9], [12], [13], [14] va [16] manbalar asosida tuzildi.



1-rasm. Aqlli shahar tizimida ijtimoiy soha boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi³

Modelning nazariy tahlili boshqaruv samaradorligini oshiruvchi to'rtta funksional tamoyilni ajratish imkonini berdi. Birinchisi – ehtiyojni oldindan aniqlash tamoyili: mahalla darajasidagi ijtimoiy pasportlar va yagona reyestr ma'lumotlarining birlashuvi xizmatni ariza kutmasdan taklif etish imkonini beradi; bu yondashuv xalqaro siyosat ramkasida proaktivlik o'lchovi sifatida e'tirof etilgan [12]. Ikkinchisi – bir marta so'rash tamoyili: idoralararo elektron hamkorlik fuqarodan takroriy hujjat talab qilinishiga ehtiyojni kamaytiradi va ma'muriy xarajatlarni optimallashtiradi [17]. Uchinchisi – xizmatning yagona kirish nuqtasi tamoyili: hududiy markazlar orqali turli idoralar xizmatlarini bitta joyda taqdim etish fuqaro uchun vaqt xarajatlarini kamaytiradi [19]. To'rtinchisi – natijaga ko'ra baholash tamoyili: xizmat hajmi bilan bir qatorda ijtimoiy holatning o'zgarishi ham asosiy ko'rsatkich sifatida qaraladi, bu esa strategik monitoringni raqamlashtirish vazifasiga to'liq mos keladi [6].

Iqtisodiy nuqtai nazardan, mexanizmning samarasi uch yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, manzillilikning oshishi ajratilayotgan mablag'larning haqiqiy ehtiyojmand qatlamga yo'naltirilish ulushini oshiradi. Ikkinchidan, tartib-taomillarning avtomatlashtirilishi bir xizmat birligiga to'g'ri keladigan ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi. Uchinchidan, ma'lumotlarga tayangan rejalashtirish infratuzilma va kadrlar bo'yicha investitsiyalarni hududiy ehtiyojlar bilan muvofiqlashtirish orqali kapital xarajatlarning qaytimini oshiradi. Ushbu uch yo'nalish empirik adabiyotlarda qayd etilgan boshqaruv vositalarining loyiha natijalariga ta'siri haqidagi xulosalar bilan mazmunan mos keladi [7]. Inklyuziyani institutsional darajada mustahkamlash esa raqamli xizmatlardan foydalanishda qo'shimcha ko'makka ehtiyoj sezuvchi qatamlar uchun tegishli yordam kanallarini rivojlantirish va saqlab qolishni taqozo etadi [10], [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tahlil aqlli shahar tizimida ijtimoiy soha boshqaruvi samaradorligi texnologik yechimlarning miqdoriga emas, balki tashkiliy tuzilmalar, iqtisodiy vositalar va axborot oqimlarining o'zaro muvofiqlashuv darajasiga bog'liq ekanini asosladi. Ishlab chiqilgan uch konturli model mexanizmning ichki mantig'ini yaxlit tarzda ifodalaydi va uni o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash imkonini beradi. O'zbekistonda shakllantirilgan institutsional asos – yagona axborot tizimi, mahalla darajasidagi ijtimoiy xodimlar guruhlar va hududiy xizmat markazlari – mazkur modelning barcha konturlariga mos keluvchi tayyor tashkiliy zamin sifatida baholandi. Elektron hukumatni rivojlantirish ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi ushbu zaminning texnologik jihatdan ham mustahkamligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar shakllantirildi. Birinchidan, hududiy ijtimoiy xizmatlar samaradorligini baholashning integral ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq; unda xizmat qamrovi, xizmat ko'rsatish muddati, manzillilik darajasi va ijtimoiy holatning o'zgarishi mustaqil o'lchovlar sifatida qatnashishi lozim. Ikkinchidan, xalqaro standartlarda belgilangan shahar indikatorlarini milliy statistik hisobot tizimiga bosqichma-bosqich moslashtirish taqqoslanuvchi ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini

3 Manba: muallif tomonidan [4], [17] va [18] manbalar asosida ishlab chiqildi.



beradi [14]. Uchinchidan, ijtimoiy xizmatlar byudjetini rejalashtirishda natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish elementlarini kengaytirish resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

To'rtinchidan, mahalla darajasidagi ijtimoiy xodimlar faoliyatini raqamli ish o'rinlari bilan to'liq ta'minlash va ularning malakasini muntazam oshirish tizimini mustahkamlash xizmat ko'rsatishning tezkorligini oshiradi [18]. Beshinchidan, raqamli xizmatlardan foydalanish ko'nikmasi cheklangan aholi qatlamlari uchun an'anaviy va raqamli kanallarni parallel ravishda qo'llovchi aralash xizmat modelidan foydalanish inklyuziyani ta'minlaydi [11]. Oltinchidan, shahar darajasida ijtimoiy sohaga oid ma'lumotlarni yagona tahliliy panelga jamlash boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasini oshiradi va strategik monitoringni raqamlashtirish vazifalarining bajarilishiga xizmat qiladi [6].

Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida taklif etilgan modelni miqdoriy sinovdan o'tkazish nazarda tutiladi: hududlar kesimida integral ko'rsatkichlarni hisoblash va ularning ijtimoiy natijalar bilan bog'liqligini ekonometrik usullar yordamida baholash mexanizmning amaliy qiymatini yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Giffinger R., Fertner C., Kramar H., Kalasek R., Pichler-Milanović N., Meijers E. Smart Cities – Ranking of European Medium-Sized Cities: Final Report. – Vienna: Vienna University of Technology, Centre of Regional Science, 2007. – 28 p. – URL: smart-cities.eu.
2. Meijer A., Rodríguez Bolívar M. P. Governing the smart city: A review of the literature on smart urban governance // International Review of Administrative Sciences. – 2016. – Vol. 82, No. 2. – P. 392–408. – URL: research-portal.uu.nl.
3. Almulhim A. I., Yigitcanlar T. Understanding Smart Governance of Sustainable Cities: A Review and Multidimensional Framework // Smart Cities. – 2025. – Vol. 8, No. 4. – Art. 113. – URL: mdpi.com.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-son "O'zbekiston Respublikasida «Aqlii shahar» texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4171067>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
7. Udoh E. S., Luna-Reyes L. F. Exploring the Impacts of Social and Technical Aspects of Governance on Smart City Projects // Smart Cities. – 2025. – Vol. 8, No. 5. – Art. 149. – URL: mdpi.com.
8. Popova Y., Popovs S. Effects and Externalities of Smart Governance // Smart Cities. – 2023. – Vol. 6, No. 2. – P. 1109–1131. – DOI: 10.3390/smartcities6020053.
9. Malek J. A., Lim S. B., Yigitcanlar T. Social Inclusion Indicators for Building Citizen-Centric Smart Cities: A Systematic Literature Review // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 1. – Art. 376. – URL: mdpi.com.
10. Kolotouchkina O., Ripoll González L., Belabas W. Smart Cities, Digital Inequalities, and the Challenge of Inclusion // Smart Cities. – 2024. – Vol. 7, No. 6. – P. 3355–3370. – DOI: 10.3390/smartcities7060130.
11. Kruhlov V., Dvorak J. Social Inclusivity in the Smart City Governance: Overcoming the Digital Divide // Sustainability. – 2025. – Vol. 17, No. 13. – Art. 5735. – URL: mdpi.com.
12. OECD. The OECD Digital Government Policy Framework: Six Dimensions of a Digital Government // OECD Public Governance Policy Papers. – Paris: OECD Publishing, 2020. – No. 2. – URL: OECD.
13. United Nations Department of Economic and Social Affairs. UN E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2024. – URL: United Nations.
14. ISO 37122:2019. Sustainable Cities and Communities – Indicators for Smart Cities. – Geneva: International Organization for Standardization, 2019. – URL: ISO.
15. International Organization for Standardization. Smart Cities: Standards Portfolio (ISO 37106, ISO 37120, ISO 37123). – URL: ISO.
16. World Bank. GovTech Maturity Index (GTMI) 2025 Update: Tracking Public Sector Digital Transformation Worldwide. – Washington, DC: World Bank, 2025. – URL: World Bank.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi PQ-4797-son "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-4930653>



18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/-6480342>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PQ-319-son "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6624639>
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-oktabrdagi 539-son "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – URL: <https://lex.uz/docs/-6636282>
21. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi. – URL: stat.uz.
22. United Nations E-Government Knowledgebase. UN E-Government Survey 2024: Country Data and E-Government Development Index. – URL: United Nations E-Government Knowledgebase.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>